

QISHLOQ XO‘JALIGI FAOLIYATI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Dusmuratov Radjapbay Davlatbayevich

Alfraganus University professori

Annotatsiya. Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligi faoliyati hisobini takomillashtirish masalasi tadqiq qilib o‘rganilgan. Xususan, qishloq xo‘jaligi faoliyati hisobining metodologiyasini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish bilan bog‘liq nazariy, normativ-huquqiy, uslubiy va amaliy muammolar o‘rganildi. Shuningdek, ularni bartaraf etish yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshiriladigan nazariy, metodologik va amaliy ishlar ko‘rsatib berilgan holda xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi faoliyati, buxgalteriya hisobi, biologik aktiv, biotransformatsiya, qishloq xo‘jaligi mahsuloti, ko‘p yillik o‘simliklar, ishchi va mahsuldor hayvonlar.

Аннотация. В данной статье изучается вопрос совершенствования учета сельскохозяйственной деятельности. В частности, были изучены теоретические, нормативно-правовые, методологические и практические проблемы, связанные с совершенствованием методологии учета сельскохозяйственной деятельности на основе международных стандартов финансовой отчетности. Также, показаны теоретические, методические и практические работы, которые необходимо провести по направлениям их устранения, и сформулированы выводы.

Ключевые слова: сельское хозяйство, сельскохозяйственная деятельность, бухгалтерский учет, биологические активы, биотрансформация, сельскохозяйственная продукция, многолетние растения, рабочие и продуктивные животные.

Annotation. This article examines the issue of improving the accounting of agricultural activities. In particular, theoretical, regulatory, methodological and practical problems related to improving the methodology for accounting for agricultural activities based on international financial reporting standards were studied. Also, the theoretical, methodological and practical work that needs to be carried out in the areas of eliminating them is shown, and conclusions are formulated.

Keywords: agriculture, agricultural activities, accounting, biological assets, biotransformation, agricultural products, perennial plants, working and productive animals.

Kirish. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni qabul qilindi. Unda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining mantiqiy

davomi bo'lgan, "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" prinsipi asosida ishlab chiqilgan, yettita ustuvor yo'nalishdan iborat bo'lgan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlangan.

Taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash"da "30-maqсад: Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish" [1] bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini va hosildorlik darajasini oshirish, mahsulot tannarxi darajasini pasaytirish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, qishloq xo'jalik korxonalarida buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish va uning metodologiyasini takomillashtirishni taqozo etadi. Chunki, mazkur vazifalar ijrosini ta'minlashda qishloq xo'jalik korxonalarida joriy buxgalteriya hisobi, ichki nazorat va tahlil uslublarining yaxlit tizimi shakllanmaganligi belgilangan vazifalarning samarali bajarilmayotganligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Albatta, bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodchi olimlari R.D.Dusmuratov [3], A.A.Karimov [4], U.K.Urazov [5], B.Yu.Menglikulov [6], A.I.Aliqulov [7], R.O.Xolbekov [8], T.Q.Qudratov [9], D.U.Mamadiyarov [10], N.K.Rizayev [11], B.M.Djurayev [12], A.S.Boltayev [13], Z.U.Muxammadiyev [14], F.T.Temirov [15] va boshqalarning ilmiy va o'quv-uslubiy ishlarida qishloq xo'jaligi korxonalarining faoliyat xususiyatiga xos buxgalteriya hisobining ayrim nazariy-uslubiy jihatlari o'rganilgan. Jumladan, iqtisodchi olimlar R.D.Dusmuratov va B.Yu.Menglikulovlar [3] tomonidan qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish, biznes jarayonlarini hisobga olishning xususiyatlari, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish, moliyaviy natijalarni shakllantirish va buxgalteriya hisobotlarini tayyorlash masalalari tadqiq qilib o'rganilgan. Albatta, iqtisodchi olimlar tomonidan yuqoridagi masalalar qishloq xo'jaligi faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda, xususan qishloq xo'jaligi faoliyatidan olingan mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilish tartibi atroflicha yoritib berilgan. Biroq, qishloq xo'jaligi faoliyati hisobining metodologiyasini MHXS asosida takomillashtirish masalalariga to'xtalib o'tilmagan.

Iqtisodchi olim B.Yu.Menglikulov [6] chorvachilikda biologik aktivlarni saqlash xarajatlari hisobi, tannarx hisoblash va auditi metodologiyasini takomillashtirish masalalarini tadqiq qilib o'rgangan. Iqtisodchi olim o'zining izlanishlarida chorvachilik tarmog'ida buxgalteriya hisobini tashkil etishning nazariy va tashkiliy-uslubiy asoslari, chorvachilikda biologik aktivlarni saqlash xarajatlari hisobini tashkil etish va uni takomillashtirish hamda chorvachilik mahsulotlari tannarxini hisoblashning metodologik asoslari va uni takomillashtirish masalalarini bayon qilgan. Ammo, iqtisodchi olim tomonidan qishloq xo'jaligi faoliyati hisobining muammolari va ularni bartaraf etish yo'nalishlari

o'rganilmagan.

Iqtisodchi olimlar R.D.Dusmuratov va N.K.Rizaevlar [11] tomonidan esa, agrar sohada MHXSni qo'llashning nazariy va amaliy jihatlari, xususan, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan 41-sonli "Qishloq xo'jaligi" BHXSning maqsadi, uni amal qilish sohalari hamda respublika agrar sohasida uni qo'llash masalalari tadqiq qilib o'rganilgan. Biroq, qishloq xo'jaligi faoliyati hisobini MHXSga uyg'unlashtirish masalalari yoritib berilmagan. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, qishloq xo'jaligi faoliyati hisobi birgina 41-son BHXS bilan tartibga solinmaydi. Balki, boshqa xalqaro standartlarda belgilangan qoidalar ham bevosita qishloq xo'jaligi faoliyatini hisobga olishda qo'llaniladi. Bir so'z bilan aytganda, iqtisodchi olimlar 41-son BHXSni agrar sohada qo'llash masalalariga to'xtalib o'tgan xolos.

Iqtisodchi olim Z.U.Maxammadiev [14] korxonalarda modernizatsiya jarayonlari hisobi va auditini takomillashtirish masalalarini tadqiq qilib o'rganishda biologik aktivlar tushunchasi, ularning tasniflanishi va tavsifi, biologik aktivlarni hisobga olishda qo'llaniladigan schyotlarni takomillashtirish bo'yicha o'z qarashlarini keltirib o'tadi. Jumladan, uning fikricha: Biologik aktivlar - bu korxonalar ixtiyoridagi o'ziga xos biologik xususiyatlarga ega bo'lgan, ular tomonidan yangi biologik aktivlarni hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini olish, ayriboshlash, ijaraga berish yo'li bilan iqtisodiy manfaat olish maqsadlarida boshqariladigan ishchi va mahsuldor hayvonlar hamda ko'p yillik o'simliklardir. Fikrimizcha, ko'p yillik o'simliklar hamda ishchi va mahsuldor hayvonlar boshqarilmaydi, balki ularning biologik transformatsiyasi va qishloq xo'jaligi mahsulotini yig'ish jarayoni boshqariladi.

Iqtisodchi olim F.Temirov [15] esa, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishni takomillashtirish masalalarini tadqiq qilib o'rgangan. Xususan, iqtisodchi olim tomonidan qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning nazariy-uslubiy asoslari, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning amaldagi holati, ularda buxgalteriya hisobi shakllarini optimallashtirish hamda xalqaro standartlar asosida takomillashtirish yo'nalishlari tadqiq qilingan holda taklif va tavsiyalar berilgan.

Shuningdek, iqtisodchi olim A.S.Boltayev qishloq xo'jaligi faoliyatida asosiy hisob obyektlaridan biri bo'lgan, biologik aktivlar va ularni hisobga olishning uslubiy jihatlari takomillashtirish bo'yicha izlanishlar olib borgan. Unda iqtisodchi olim biologik aktivlar, ularning tasniflanishi, buxgalteriya hisobi obyekti va moliyaviy hisobot elementi sifatida aks ettirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish masalalariga to'xtalib o'tgan xolos.

Umuman olganda, hozirgacha qishloq xo'jaligi faoliyati hisobining metodologiyasini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirishga bag'ishlangan kompleks tadqiqot olib borilmagan. Bu holat, mazkur yo'nalishda tizimli ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini belgilaydi. Bu albatta, qishloq xo'jaligi faoliyati natijasida yuzaga keladigan biznes jarayonlarini

buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettirish bo'yicha mavjud muammo va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qishloq xo'jaligi faoliyati hisobini takomillashtirish masalalarini tadqiq qilishda ilmiy-tadqiqot metodologiyasidagi mavjud nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori [2]da bir qator vazifalarni amalga oshirish belgilangan. Milliy hisob tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha qo'yilayotgan vazifalar ijrosini ta'minlash va qishloq xo'jaligi korxonalarida xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotda aks ettirish bo'yicha mavjud nazariy, normativ-huquqiy, uslubiy va amaliy muammolar qishloq xo'jaligi faoliyati hisobining metodologiyasini moliyaviy hisobot xalqaro standartlari asosida takomillashtirishni talab etadi (jadval).

Jadvalda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida qishloq xo'jaligi faoliyati hisobi bilan bog'liq muammolar tizimlashtirilgan holda tasniflangan va tavsiflab berilgan.

Fikrimizcha, mazkur muammolarni hal etishda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha nazariy, amaliy va metodologik ishlarni amalga oshirish lozim:

"Qishloq xo'jaligi faoliyati hisobini tartibga soluvchi normativ-huquqiy muammolar" yo'nalishi. Bunda milliy hisob tizimiga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ni joriy etishni hisobga olgan holda normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish lozim. Xususan, buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS)ni MHXSga uyg'unlashtirishni hisobga olgan holda ularni takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz. Chunki, amaldagi BHMSlar MHXS talablariga to'liq javob bermaydi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri ekanligini hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi faoliyatini hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibi belgilangan buxgalteriya hisobi milliy standartini ishlab chiqish lozim.

Bularning natijasida qishloq xo'jaligi faoliyatini tartibga soluvchi alohida normativ-huquqiy hujjat mavjudligi ta'minlanadi va unda belgilangan qoidalar qishloq xo'jaligi faoliyati hisobini tartibga soladi. Shuningdek, MHXS talablari asosida yangi schyotlar rejasi va moliyaviy hisobot shakllarini ishlab chiqish imkonini beradi.

"Qishloq xo'jaligi faoliyati hisobining nazariy muammolari" yo'nalishi. Mazkur yo'nalishdagi muammolar bugungi kunda qishloq xo'jaligi faoliyati hisobining metodologiyasini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zaruratini

kuchaytiradi. Chunki, tadqiqot natijalari asosida qishloq xo‘jaligi faoliyati hisobining asosiy hisob obyektlari bo‘lgan ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko‘p yillik o‘simliklar, o‘stiruvdagi va boquvdagi hayvonlarni buxgalteriya hisobi nuqtai nazardan takomillashgan tavsifi va tasnifi ishlab chiqiladi. Xususan, “qishloq xo‘jaligi faoliyati”, “biologik aktiv”, “biologik transformatsiya”, “qishloq xo‘jaligi mahsuloti” va “qayta ishlash natijasida olingan mahsulot” kabi tushunchalarga iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlarini o‘rgangan holda ilmiy asoslangan yondashuvlar ishlab chiqiladi.

1-jadval

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish bilan bog‘liq muammolar va ularning tavsifi¹⁰

№	Muammolarning tasniflanishi	Muammolar tavsifi
1	Qishloq xo‘jaligi faoliyati hisobini tartibga soluvchi normativ-huquqiy muammolar	Qishloq xo‘jaligi faoliyati hisobi turli normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishi va ularda qishloq xo‘jaligi faoliyatining xususiyatlari umumiy asoslarda belgilanganligi, milliy va xalqaro standartlardagi tafovutlar, agrar soha xususiyatlarini hisobga olgan holda qishloq xo‘jaligi faoliyati natijalarini buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini belgilovchi nizom (yo‘riqnoma)larning yetishmasligi
2	Qishloq xo‘jaligi faoliyati hisobining nazariy muammolari	Qishloq xo‘jalik faoliyati, qishloq xo‘jalik korxonalari faoliyati buxgalteriya hisobining asosiy hisob obyektlari bo‘lgan ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko‘p yillik o‘simliklar, o‘stiruvdagi va boquvdagi hayvonlarni buxgalteriya hisobi nuqtai nazardan tasniflash muammolari, qishloq xo‘jaligi hosili, biologik aktiv va biologik transformatsiya jarayonlari natijasida olingan qishloq xo‘jaligi mahsuloti yoki biologik aktivlarni tan olish masalalari yetarlicha ochib berilmaganligi, biologik aktivlarni hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga uyg‘unlashtirishni hisobga olgan holda takomillashtirish masalalari bo‘yicha kompleks tadqiqotlar olib borilmaganligi
3	Qishloq xo‘jaligi faoliyati hisobining uslubiy muammolari	Qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan bog‘liq xo‘jalik jarayonlari natijalarini tan olish va baholash, buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish, biologik transformatsiya jarayonlari natijasida olingan qishloq xo‘jaligi mahsuloti yoki biologik aktivlar tannarxini shakllantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining qo‘shimcha turlarini hisobga olish, moliyaviy natijalarini shakllantirish va moliyaviy hisobotda aks ettirish bo‘yicha yagona uslubiy ko‘rsatmalarning mavjud emasligi
4	Qishloq xo‘jaligi faoliyati hisobining amaliy muammolari	Qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan xo‘jalik jarayonlarini hujjatlashtirish, hujjatlar aylanishini tashkil etish, analitik hisobni tashkil etish, xarajatlarni taqsimlash, xarajatlarni taqsimlashda mavjud normativlarning eskirganligi va taqsimlash usullarining mavjud emasligi, qishloq xo‘jaligi faoliyati natijalari bo‘yicha olingan daromadlarni to‘g‘ri hisobga olish, foyda va zararlarni tan olish va ular to‘g‘risidagi axborotlarni moliyaviy hisobotda aks ettirishda noaniqliklarning mavjudligi va boshqalar

¹⁰ Muallif ishlanmasi

“Qishloq xo‘jaligi faoliyati hisobining uslubiy muammolari” yo‘nalishi. Ushbu yo‘nalishdagi muammolarning bartaraf etilishi milliy hisob tizimini, jumladan qishloq xo‘jaligi faoliyati hisobining metodologiyasini MHXSga muvofiq takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar samarasiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, mazkur yo‘nalishda quyidagi vazifalarni bajarish lozim, deb hisoblaymiz:

- qishloq xo‘jaligi korxonalarida qishloq xo‘jaligi faoliyatini tizimli va to‘liq hisobga olish orqali hisob siyosatini takomillashtirish;
- xalqaro tajribalar asosida biologik aktivlarni tan olish, hisobini tashkil etish va yuritish hamda moliyaviy hisobotda aks ettirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar tayyorlash;
- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotini hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash jarayoni va natijalarini hisobga olishning uslubiy jihatlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish.

Yuqoridagi vazifalarning bajarilishi qishloq xo‘jaligi faoliyatini hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini hamda axborotdan foydalanuvchilarni ishonchli va asoslangan ma‘lumotlar bilan o‘z vaqtida ta‘minlash imkonini beradi.

“Qishloq xo‘jaligi faoliyati hisobining amaliy muammolari” yo‘nalishi. Mazkur yo‘nalishda qishloq xo‘jaligi faoliyatini hisobga olishda qo‘llaniladigan dastlabki va yig‘ma hujjatlarni takomillashtirish zarur. Chunki, bir qator dastlabki va yig‘ma hujjat shakllarida barcha kerakli rekvizitlar mavjud emas. Shuningdek, amaldagi mavjud shakllarda texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar, xarajat moddalari, mahsulotning chiqishini aks ettirish bilan bog‘liq kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Shu sababli, ularning ko‘rsatkichlarini imkoni boricha unifikatsiyalash va hujjatlar aylanishini tashkil etish lozim. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi faoliyati hisobining analitik hisobi ham takomillashtirishga muhtoj. Masalan, 1110 – “O‘stirishdagi hayvonlar” schyoti bo‘yicha joriy yilda tug‘ilgan buzoqlar, o‘tgan yilda tug‘ilgan buzoqlar va ikki yoshdan katta buzoqlar guruhlariga ajratgan holda analitik hisobining tashkil etilishi mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish va o‘stirishdagi hayvonlar bahosini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida mavjud, dolzarb bo‘lgan amaliy muammolardan biri bu xarajatlarni taqsimlash va mahsulot tannarxini aniqlash muammosi. Xususan, tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan “MEHNAT BAXTLI SUT” mas‘uliyati cheklangan jamiyatda bo‘g‘oz g‘unajinlardan nasl olinganda ularni saqlash xarajatlari to‘liq olingan sut tannarxiga taqsimlanmoqda. Chunki, sut va nasl

tannarxini hisoblashda xarajatlarni taqsimlash metodikasi bo'yicha aniq uslubiy ko'rsatma mavjud emas.

Xulosa. Qishloq xo'jaligi faoliyati hisobining metodologiyasini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

qishloq xo'jaligi faoliyati hisobining metodologiyasini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodchi olimlarning asarlari tadqiq qilib o'rganildi. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunga qadar qishloq xo'jaligi faoliyati hisobining metodologiyasini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirishga bag'ishlangan kompleks tadqiqot olib borilmagan. Bu esa, mazkur yo'nalishda tizimli ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini belgilaydi. Bu albatta, qishloq xo'jaligi faoliyati natijasida yuzaga keladigan biznes jarayonlarini buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettirish bo'yicha mavjud muammo va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi;

milliy hisob tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha qo'yilayotgan vazifalar ijrosini ta'minlashda bevosita qishloq xo'jaligi faoliyati hisobining metodologiyasini ham takomillashtirish zarurati mavjudligi asoslab berildi;

qishloq xo'jaligi faoliyatini hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish bilan bog'liq muammolar nazariy, normativ-huquqiy, uslubiy va amaliy muammolarga ajratilgan holda tasniflandi va tavsiflab berildi;

qishloq xo'jaligi faoliyati hisobining metodologiyasini takomillashtirish bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish yo'nalishlari ko'rsatib berildi hamda ular bo'yicha nazariy, amaliy va metodologik ishlarni amalga oshirish lozimligi asoslandi.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini hisobga olish bilan bog'liq mavjud muammolar qishloq xo'jaligi faoliyatini to'g'ri va o'z vaqtida hisobga olishning obyektiv zaruratini kuchaytiradi, yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha tizimli ravishda ilmiy tadqiqotlarning amalga oshirilishi qishloq xo'jaligi faoliyati hisobining metodologiyasini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga 1-ILOVA. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevral PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-

tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/4746047>

3. R.D.Dusmuratov, B.Yu.Menglikulov. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014. 392 bet.

4. Karimov A.A. Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini yuritishning ayrim jihatlari. // Sotsialno-ekonomicheskiye problemy razvitiya integratsionnykh protsessov v usloviyax liberalizatsii natsionalnoy ekonomiki: Sbornik nauchnykh trudov. — Moskva, MGEI. 2008. -S. 145-147.

5. K.B.Urazov, S.V.Vaxidov. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. – T.: Adib, 2011. 494 bet.

6. Menglikulov B.Yu. Chorvachilikda biologik aktivlarni saqlash xarajatlari hisobi, tannarx hisoblash va audit metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. – T.: 2023. – 203 b.

7. Aliqulov A.I. Paxta tolasini ishlab chiqarish va tayyorlash xarajatlari hisobi hamda tahlili metodologiyasini takomillashtirish: iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati: 08.00.08. / Aliqulov Abdumomin Ismatovich. -Toshkent, 2012. -37 b.

8. Xolbekov R.O. Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish hisobini tashkil qilishning tamoyillari va uslubiyoti: iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati: 08.00.08. / Xolbekov Rasul Olimovich. –Toshkent, 2006. -46 b.

9. Qudratov T.Q., Fayziyeva N. Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining tahlili. – Samarqand. “N.Dobf”, 2010. -169 b.

10. Do'smuratov R.D., Mamadiyarov D.O'. Qishloq xo'jaligida boshqaruv hisobi; uslubiyot va amaliyot. -T.: “Moliya” nashriyoti, 2008. -148 b.

11. Dusmuratov R.D., Rizayev N.K. Agrar sohada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: nazariya va amaliyot. “Logistika va iqtisodiyot” ilmiy elektron jurnali. 2020 / 1-son. 15-21 betlar.

12. Dusmuratov R.D., Djurayev B.M. Qishloq xo'jalik korxonalarida hisob siyosati: uslubiy va tashkiliy-texnik jihatlari. Monografiya. – T.: 2016.

13. Boltaev A. Biologik aktivlar hisobining uslubiy jihatlarini takomillashtirish //Economics and Innovative Technologies. – 2024. – T. 12. – №. 1. – S. 36-47.

14. Maxammadiev Z.U. Korxonalarda modernizatsiya jarayonlari hisobi va auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. –T.: 2021. – 76 b.

15. F.T.Temirov Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish. “Iqtisodiyot va ta'lim” / 2021-yil, 3-son. 70-75 betlar.